

## Qoraqalpog‘Istondagi Turkmanlar Tiliga O‘zbek Tilining Ta‘Siri

*Babaeva Maya Amangeldievna<sup>1</sup>, Chariev Chari Davletmametovich<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turkman tilining qarindosh va noqarindosh tillar bilan mavjud kontaktlari, bilingvizm va u bilan bog‘liq hodisalarni tadqiq qilish turkman tilshunoslari oldida turgan eng muhim dolzarb muammolarini yechish ko‘zda tutilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, turkman tilini qoraqalpoq va o‘zbek tillari bilan qiyosiy o‘rganish yana bir bor amalga oshirilib, qoraqalpoq va o‘zbek tilining Qoraqalpog‘istonda yashovchi turkmanlar tili bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganish va mahalliy turkmanlar tilining har xil til o‘zgachaligini kuzatish olib borilmoqda va bu boradagi barcha til xususiyatlarining kuzatuvi davom ettirilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, turkman tili, turkman tili leksikasi, bilingvizm, tillarning ta‘sir, turkman shevalari.

Turkman millat vakillari O‘zbekiston hududida qadim zamonlardan beri yashab keladilar. Ular o‘zlarining ko‘p asrlik madaniyati va an‘analarini saqlagan holda O‘zbekistonning ko‘pmillatli yagona oilasiga uyg‘un tarzda qo‘shilib ketganlar. Turkmanlar o‘zbek xalqi bilan tili va tarixiy ildizlarining yaqinligi, shuningdek ikkala halq uchun umumiy bo‘lgan epos, afsona va halq dostonlari birlashtiradi.

Har bir xalqning mustaqil tilining paydo bo‘lishi sharti o‘sha xalqning urf-odatlari, an‘analari, tarixiy o‘tmishi bilan bevosita bog‘liqdir. Darhaqiqat, ildizi bir bo‘lgan turkiy tilli xalqlar qadimdan bir hududda yashab kelgan. Ularning bir-birlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va hokazo aloqalari bo‘lgan. Shunday qilib, xalqlarning har birining tili, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsada, ularning umumiy tomonlari saqlanib qolgan.

Turkman tili turkiy tillar oilasining o‘g‘uz – turkman guruhiga mansub bo‘lib, [1] ilk bora turkman atamasi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida berilgan.

Devonda “ O‘g‘uz – turklarning bir qabilasi. O‘g‘uzlar – turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug‘dir: ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg‘alari bordirkim, urug‘larni shu tamg‘alariga qarab ayiradilar.

Birinchisi va boshliqlari qinin – qinniqlardir”, deyiladi ularning yigirma ikki urug‘lari borligi qayd etilib, birma-bir sanalib o‘tilgan. [2:90]

Turkman termini etimologik jihatdan, avvalboshida, islom dinini qabul qilgan o‘g‘uzlar uchun qo‘llanilgan “ turk+imon” so‘zlaridan kelib chiqqan degan talqin ilgari surilgan bo‘lsa, keying yillarda Jeyn Denining “sof turk”, “haqiqiy turk” ma‘nosini beruvchi (turk+man/men) so‘zlar qo‘shilmasidan kelib chiqqan degan, ilmiy farazi turkologiyada keng tan olinmoqda. [3:233]

Turkman tili boshqa o‘g‘uz tillaridan farqli ravishda rivojlanishda o‘g‘uz elementlari bilan birga qipchoq elementlarini ham o‘zida aks ettiradi. [4:17]

Turkman tili ham o‘zbek tili singari ko‘p shevali til hisoblanadi. Teke, Gökleñ, Ýomut, Salyr, Saryk, Ärsary, Ata, Çowdyr va boshqalar. Turkman shevalari, asosan, ikki katta guruhga birlashtirilib, tadqiq etiladi: O‘g‘uz va Qipchoq shevalari.

<sup>1</sup> Ajinyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

<sup>2</sup> Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi



Turkiy tillar birdaniga hozirgi holatiga kelib qolmagan. Ular uzoq rivojlanish tarixini boshdan kechirdilar. Har bir xalq tarixida bo'lgani kabi turkmanlar ham turli xalqlar bilan aloqada bo'lgan. Bu boshqa xalqlar tillaridan bir qancha so'zlarning tilimizga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Tarixi bir bo'lgan o'zbek va turkman tillariga mansub kishilar qadim-qadim zamonlardan beri yonmayon yashab hayot kechirishgan.

N.A. Baskakov klassifikatsiyasi bo'yicha turkiy tillarning Janubi-g'arbiy (o'g'uz yoki turkman) guruhiga turkman tilini va Janubi-sharqiy (garlyk-çagataý) guruhiga esa o'zbek va uyg'ur tillarini kirgizgan.[6:58]

Bir tarixiy ildizga aloqador turkiy tillar leksikasi ko'p jihatdan bir xil umumiylikka ega. Ularning so'z boyligining asosiy qismini umumturkiy so'zlar tashkil etadi.

Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanida yashovchi barcha turkman shevalari vakillari nutqida ishlatilayotgan leksik birliklarning asosiy qismi deyarli

barcha turkiy xalqlar uchun umumturkiy so'zlar bo'lib, ularning aksariyat qismining turkiy yozma yodgorliklarda uchrashini kuzatish mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak, rus turkologi N. A. Baskakov o'zining mashhur "Turk tillarni o'rganishga kirish" asarida "Turkiy tillarining asosiy lug'at tarkibining o'ziga xos xususiyati uning barcha turkiy tillar uchun umumiy birligidir", – deb yozgan edi[7:118].

Akademik Sh.Shoabdurahmonov ham o'z asarida bu fikrni "O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgani uchun o'zbek tiliga va uning shevalariga xos bo'lgan ko'pgina so'zlar (o'zbek tilining asl so'zlari) boshqa turkiy tillar lug'atida ko'p so'zlar bilan etimologik birlik (o'xshashlik) mavjud", – deb aytib o'tgan[8:207].

Umumturkiy so'zlar turkiy tillar leksikasining asosiy o'zagini tashkil qiladi va ularning barchasida ma'no jihatdan birdek xizmat qiladi. Ba'zi so'zlar ma'noning kengayishi yoki qisqarishi asosida o'zgaradi. Boshqa hollarda, faqat fonetik jihatdan farq qiladi. Turkiy tilli xalqlar bir-birini tarjimonsiz to'liq tushunish uchun umumturkiy so'zlardan foydalanadilar. Shu qatorda o'zbek va turkman tillari ham umumturkiy so'zlarni qo'llanganliklari sababli bir-birlariga tushunib, muloqot qila oladilar. Hozirgi kunda til o'rganishning eng dolzarb muammolaridan biri til va til o'rtasidagi ana shunday munosabatni o'rganishdir.

Turkman tilining qarindosh va noqarindosh tillar bilan mavjud kontaktlari, bilingvizm va u bilan bog'liq hodisalarni tadqiq qilish turkman tilshunoslari oldida turgan eng muhim dolzarb muammolaridan biri deb hisoblaymiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, turkman tilini qoraqalpoq va o'zbek tillari bilan qiyosiy o'rganish yana bir bor amalga oshirilib, qoraqalpoq va o'zbek tilining Qoraqalpog'istonda yashovchi turkmanlar tili bilan o'zaro ta'sirini o'rganish va mahalliy turkmanlar tilinig har xil til o'zgaligini kuzatish olib borilmoqda va bu boradagi barcha til xususiyatlarining kuzatuvini davom ettirilmoqda.

B. A. Serebrennikov shunday deydi: "Tillarning o'zaro aloqasini o'rganish lingvistikaning asosiy vazifalaridan biridir. Tillarning o'zaro ta'siri natijasida bir-birini boyitishi aniq va obyektiv hodisa bo'lib, lingvistika fani unga e'tiborsizlik bilan qaray olmaydi"[9:18].

Qoraqalpog'istondagi lisoniy vaziyatni tadqiq qilgan filologiya fanlari doktori G.Kurboniyazov shunday yozadi: "Qoraqalpog'istondagi tillarni sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilishda kommunikativ muhit va sotsiolingvistik zona tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir. Shunga asoslanib, Qoraqalpog'iston hududidagi tillarni ikki katta sotsiolingvistik zonaga ajratish mumkin: 1) janubiy – o'zbek tilli zona; 2) shimoliy – qoraqalpoq tilli zona".[10:12]

Janubiy sotsiolingvistik zonada turkman-o'zbek ikki tilliligi keng tarqalgan. Chunki turkmanlar mazkur hududda miqdori jihatdan o'zbeklardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ularning ko'p qismi To'rtko'l, Ellikqal'a, Beruniy, Xojayli tumanlarida istiqomat qiladi. Hududdagi turkman shevalariga o'zbek tilining kuchli ta'siri bor. Chunki turkmanlar o'zbek tilli aholi orasida ma'lum "orolcha"lar



sifatida yashab kelmoqda va ularning tiliga ko'p sonli aholi tilining sezilarli ta'siri bo'lishi tabiiy.[11:3]

XIX asr o'rtalarida Qorag'alpog'istonning To'rtko'l tumanidagi turkmanlar Turkmanistonning janubi-g'arbiy viloyatlaridan ko'chib kelgan. Ularning ko'pchiligi turkmanlarning ata shevasiga mansub bo'lib, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ozroq igdir, düýeji va gökleñ shevalariga mansub kishilardir. Turkmanlarning ata shevasi o'zining biroz mustaqillikni saqlab qolgan va qo'shni tillarning ta'siriga kamroq uchragan. Shu nuqtayi nazardan, To'rtko'l tumanida yashovchi ata turkmanlarning tilini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga –ata turkmanlarining, ikkinchi guruhga esa igdir, düýeji, gökleñ shevalarini[5:52] misol qila olamiz.

Bundan tashqari Qorag'alpog'istonning Beruniy, Amudaryo, Xo'jayli tumanlarida ham turkmanlar yashaydi. Bu hududlardagi turkmanlar qardosh o'zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlari vakillari bilan birga hayot kechirishadi. Shunga ko'ra, o'zbek va qoraqalpoq tillarining ularning tillariga ta'siri sezilarli darajada. O'zbeklar orasida igdir, düýeji va gökleñ dialektiga mansub kishilar yashagani uchun ularning nutqiga o'zbek tilidan “kaldyrqaç”(qaldirg'och), “göş” (go'sht), “ha:tyñ” (xotin), “kemmagal” (kambag'al)[5:52] kabi ko'plab so'zlar o'tgan.

To'rtko'l turkmanlarining shevasi va o'zbek tilining ko'pgina shevalarida aka [äkä] so'zi o'zbek adabiy tilidagi “Bir ota-onadan tug'ilgan katta o'gil” ma'nosida ishlatiladi. Biroq turkman tilining ata so'zlashuvida aka so'zi “**aga**” [a:ğa], at. 1. “Özüñden uly erkeq dogan; kakañ, atañ erkeq dogany; ýaşy özüñden uly erkeq dogan oqlan. 2. Özüñden uly ýaşly adamlara hormat, sarpa go'ymak üçin olaryñ adyna derek ýa-da adynyñ yzyndan artdyrylýan söz” kabi ma'nolarni bildiradi: Meret aga. Aşyr aga. 3. Hökümdar, häkim; baýar. Ýer özüñkimi? Ýok, aganyñky (G. Seýitliýew). 4. Gadyrdan, hossar. Görogly agam gelipdir (“Görogly”).[12:31]

Lekin o'g'uz guruhi tillariga mansub turkman tili shevalarida, jumladan, To'rtko'l turkmanlarining shevasida **eke** “opa” EKE, at.,gepl.d. 1.Özüñden uly aýal doganyña we kakañ aýal doganyña bolan garyndaşlyk gatnaşygyny añladýan söz.[12:344] 2. Adam ady. Lekin Xojayli tumanida yashovchi turkmanlarning yomut shevasida eke so'zi o'rniga ejeke so'zi keng ishlatiladi. Bu esa bibi so'zining sinonimidir. Ammo turkmanlarning arabachi shevasida eke so'ziga nisbatan bibi ko'proq qo'llaniladi. BIBI [bi:vi], at. 1. Ruhanylar maşgalasynyñ aýalgyzlyrynyñ atlarynyñ yzyndan ýa-da öñünden getirilip, hormat üçin ulanylýan söz. 2. gepl.d. Özüñden uly aýal doganyña, kakañ aýal doganyña ýüzlenilip aýdylýan garyndaşlyk gatnaşygyny añladýan söz, ejeke. 3. Gyza dakylýan at.[12:147]

Turkman adabiy tilida ekeji[13:36] Gelniñ adamsyndan uly aýal doganyña bolan gatnaşygy görkezýän söz. Ekejili bir gelin şeýle düzgüni arzuw etdi (B. Kerbabayew, Aýgytly Ädim). Bu so'z o'zbek tilida “qaynegachi” ma'nosida ishlatiladi. O'zbek tilidagi egachi “akaning xotini”, “o'zidan yoshi katta xotinga ayol kishining murojaat so'zi. *Mening uch egachim bor.* Bu so'z qadimgi turkiy tildagi “opa” ma'nosini anglatgan eka [ekä] so'zidan e'zozlash ma'nosini ifodolovchi –**chi** qo'shimchasi bilan hosil qilingan.[14:459] O'zbek shevalarida esa ekächi //äkäji//egach//egachi “egchi, opa”, “xola”, “tutingan opa”[15:329] kabi so'zlarda qadimgi eka so'zi ma'nosining saqlanganini ham payqash mumkin.

Bulardan tashqari o'zbek tilidagi **guru(n)ch** forscha – guruch: sholidan oqlab olinadigan don mahsuloti. Guruch zavodi. Guruch orasida kurmak bo'lmoq.[16:529] Turkman tilida esa bu so'zni o'zbek tilining ta'siri ostida **bürünç** deb yuritiladi. **BÜRÜNÇ** I, at. Mis bilen galaýy garyndysyndan emele gelýän metal. “Bürünç asyry” bürünçden ýasalan ýaraglaryñ, iş gurallarynyñ, bezeg esbaplarynyñ, gap-çanaklaryñ ýáýramagy bilen häsiýetlenýän takmynan b. e. öñ 3-1 müñýyllyklary öz içine alýan medeni-taryhy döwür. Bürünç çanlar bürünçden tegelek görnüşde ýasalyan we kakylyp çalynyan gadymy türkmen saz guraly. Çanlary biri-birine urmak arkaly ses alynýar. **BÜRÜNÇ** II, at, gepl.d. Tüwi. Atyñ kişmiş iýermi, bürünç iýermi? (“Görogly”). Ýagşy diýrler mäs, bürünji, Kem dälñiñ hiç aşdan, bugday (Mätäji). Lekin bu so'zning ikkinchi nomi ham bor, yani bu tüwi.

TÜWI [tүwü], at. 1. Iýmit üçin ulanylýan ak, süýnmek däne, bürünç.[16:390] Bu esa Hojeyli tumanida qoraqalpoq, qozoq millati vakillari bilan yonma-yon yashaydigan turkmanlarning yomut shevasida ishlatiladi.



ÖŇ, hal. 1. Biriniň, bir zadyň alyn, ýüz tarapy we şol tarapdaky ýer, giňişlik, meýdança. Jaýyň öňi. Myhmanyň öňünde saçak ýazyldy. 2. Häzirki wagtdan ozal. Meniň bilen gitjek bolsaň, öň näme işlediň, ýatladaýsaň bolmaýrmy?. 3. Beýlekilerden ilki. Onuň aty ýaryşa goşulan beýleki atlardan at gaýtarym öň geldi. Öňe düşmek (çykmak) ýolbaşçylyk etmek[17:166]. To'rtko'l turkmanlari tilidagi **öň** so'zi o'rniga, o'zbek tilidagi **old** 1. narsalarning kuzatuvchiga qarshi qaragan qismi; pesh, yuz. Binoning oldi. 2. Narsalarning ilgari tomoni degan ma'nolarini bildiradigan bu so'z, To'rtko'l turkmanlari shevasida *öň* so'ziga nisbatan *oldi* so'zi fonetik o'zgarishga uchrab, *aldy* (aýnanayň aldy, aýnanayň aldynda kitap dur) kabi aktiw ishlatiladi.

Yana-da misollardan bittasi turkmanlarning ata shevasida qo'llanidan misollardan biri "işik" so'ziga to'xtalib o'tmoqchimiz. IŞIK [i:şik], at. 1. Gapynyň iki söyesiniň arasyndaky bölegi, bosaga; ätlenip girilýän ýer. 2. Gapy. 3. göç.m. Gapynyň daş we iç tarapy, gapa ýakyn ýer. Daş işik. İç işik. 4. Öýüň öň tarapy, jaýyň gapy tarapyndaky giňişlik. [12:619] kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'z faqat To'rtlo'l tumanida yashovchi turkmanlar tilida aktiv ishlatiladi. Sababi esa ular o'zbek millati vakillari bilan yashayotganligidandir. O'zbek tilida esa eshik 1. Uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o'rnatiladigan, ochib-yopib turiladigan qurilish buyumi.[18:65] Xojayli tumaniga mansub turkmanlarning yomut shevasi tilida esa *qapi* deb qo'llaniladi. To'rtko'l tumaning Qirqqiz obod OFY da o'zbeklar bilan birga yashayotgan oz sonli turkmanlar tiliga o'zbek tilining ta'siri kuchliroq seziladi. Ba'zi so'zlarning fonetik o'zgarishga uchraganini misollarda ko'rib chiqamiz: quduq-guduq, (o'zb-quduq, tkm-aýdym) qo'shiq-goshiq, (o'zb-qo'shiq, tkm-aýdym) ko'rdingizmi-gördingizmi (o'zb-ko'rdingizmi, tkm-gördüñizmi), tabriklayman-täbrikleýen (o'zb-tabriklayman, tkm-täbrikleýen), sulola-sylala (o'zb- sulola, tkm- nesil, nebere, tohum-tiç) tabrilayman-tabrikleyen va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi turkmanlar ikki til ta'sirida gapiradilar. Ayniqsa bu yosh avlodda ko'proq kuzatiladi. Ularning bunday gapirishiga yoshlarning turkman tilida oqishidan qat'i nazar, maktablarda o'zbek davlat tilining o'tilishi bu tilning o'zbek tiliga yaqinligini kuchaytirdi. Bu esa yosh avlodning ikki tilda mustaqil gapirishiga olib keladi. Ular orasidagi bu yaqinlik nafaqat tillarida, balki urf-odatlar ham ma'lum darajada o'zbeklarga moslashgan.

### Adabiyotlar

1. Баскаков Н. А. Введение в изучение тюркских языков. М., 1969.
2. Mahmud Koşgariý. Dewon Lugat-at – türk. С. Mutallibowuyň terjimesi. 1. Toşkent, 1960. 90 s.
3. Mehmet K. Türkmen türkçesi // Türk lehçeleri grameri. - Ankara, 2007, B. 233.
4. Weýisow B. Türkmen diliniň taryhy. Aşgabat, 2008. – B.17.
5. Nartyýew N. Türkmen dialektologiyasy. Aşgabat, 2010. B. 46 7
6. Weýisow B. Türkologiya giriş. Aşgabat 2010. 58 s.
7. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М.: Высшая школа, 1969. 118 с.
8. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. Тошкент: Фан, 1962. 207 б.
9. Серебrennikov. Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. М.: Наука, 1986. 18 б.
10. С. Аразкулыев Гарагалпагыстан АССР-ниң Дөртгул районындакы түркмен геплешиклери. Ашгабат, 1961. 12 с.
11. Курбониёзов Г. Коракалпоғистондаги тиллар вазияти. Ноқис, 2018. 3 с.
12. Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. Iki tomluk. I tom. A-Ž – Aşgabat: Ylym, 2016. 147 s
13. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild (Shavkat Rahmatullayev). Toshkent: Universitet, 200. 459 s.



14. Ўзбек халқ шевалари луғати. Т.: Фан, 1971. 329 б.
15. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati (A.Madvaliev). Toshkent. S. 529.
16. Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. Iki tomluk. II tom. K-Z – Aşgabat: Ylym, 2015. 166-390 s.
17. O‘zbek tili izohli lug‘ati E-(A.Madvaliev). Toshkent. S. 65.
18. Türkmen diliniň sözlügi Türkmenistan SSR ylymlar Akademiýasynyň neşirýaty. Aşgabat, 1962. S. 36.

